TILSHUNOSLIK

UDK: 81`33 DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss6/a80

TO‘LIQSIZ VA BOG‘LAMA FE’LLARDA SINKRETIZM VA POLIFUNKSIONALLIK

СИНКРЕТИЗМ И ПОЛИФУНКЦИОНАЛЬНОСТЬ В НЕПОЛНЫХ ГЛАГОЛАХ И ГЛАГОЛАХ-СВЯЗКАХ

SYNCRETISM AND POLYFUNCTIONALITY OF INCOMPLETE AND LINKING VERBS

Ganiyeva Dildoraxon Azizovna[1]
[1]Farg‘ona davlat universiteti ingliz tili kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya

Fe’llar barcha tillarda boshqa so‘z turkumlariga nisbatan grammatik jihatdan ancha murakkab bo‘lgani sababli, u haqdagi qarashlar ham munozarali, talqinlar ham turlicha. Fe’lga xos bo‘lgan bunday murakkablik, tabiiy ravishda, unga berilgan ta’riflarning xilma-xilligini keltirib chiqaradi.

Mazkur maqolada sinkretizm va polifunksionallik hodisalari, uning tilshunoslikda o‘rganilishi, o‘zbek tilidagi to‘liqsiz fe’llar hamda ingliz tilidagi bog‘lama fe’llarning talqini va funksional-uslubiy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. O‘zbek tilidagi to‘liqsiz fe’l, ingliz tilidagi birlamchi yordamchi fe’l va bog‘lovchi fe’l turlarining sinkretik tabiati hamda polifunksional xususiyatlari tahlil qilinadi.

Аннотация

Так как глаголы грамматически более сложны, чем другие части речи во всех языках, взгляды на них противоречивы, а интерпретации различаются. Такая сложность, присущая глаголу, естественно, порождает разнообразие данных ему определений.

В данной статье рассматриваются явления синкретизма и полифункциональности, их изучение в лингвистике, трактовка и функционально-стилистические особенности глаголов несовершенного вида в узбекском языке и глаголов-связок в английском языке. Анализируются синкретическая природа и полифункциональные характеристики неполных глаголов в узбекском языке, первичных вспомогательных и связочных глаголов в английском языке.

Abstract

Since verbs are grammatically more complex than other word groups in all languages, viewpoints on it are controversial and interpretations vary. Such complexity, inherent in the verb, naturally gives rise to the variety of definitions given to this word class.

This article discusses the phenomena of syncretism and polyfunctionality, their study in linguistics, the interpretations and functional-stylistic features of incomplete verbs in Uzbek and linking verbs in English. The syncretic nature and polyfunctional characteristics of incomplete verbs in Uzbek, primary auxiliaries and linking verbs in English are analyzed.

Kalit so‘zlar: *sinkretizm, polifunksionallik, nutqiy qurshov, to‘liqsiz fe’llar, bog‘lama fe’l, yordamchi fe’l, ot kesim, bog‘lama, fe’lning analitik zamon shakllari.*

Ключевые слова: *синкретизм, полифункциональность, речевая контекст, неполные глаголы, глагол-связка, вспомогательный глагол, существительное сказуемое, связка, аналитические времена глагола.*

Key words: *syncretism, polyfunctionality, a speech environment, incomplete verbs, a linking verb, an auxiliary verb, a predicate nominative, linking, analytical tenses of the verb.*

KIRISH

Turli tizimlarga mansub bo‘lgan tillarda til hodisalari bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ularning farqli jihatlari nutqiy vaziyatlarda yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Bunday farqlanish har qanday tilning asosiy ifoda birligi bo‘lgan so‘zlar orasida, ayniqsa, harakat va holatni bildiruvchi fe’llarda ko‘zga tashlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tilshunoslikda sinkretizm va polifunksionallik tilning ontologik tabiatiga bevosita daxldor hodisa sifatida til va nutq, umumiylik va xususiylik, imkoniyat va voqelik, mohiyat va hodisa tushunchalari doirasida alohida tadqiq etilgan. Mazkur masalalar N.Gvishiani [1], V.Babayseva[2], M.Beermen, D.Braun, G.Korbett[3], M.Xolidey, K.Metziessen[4], M.Krifka[5], M.Pavlyukoves[6], A.Polikarpov[7], G.Stamp[8,73-93], O.Denisova[9], E.Simz[10] kabi olimlar asarlarida atroflicha yoritilgan. O‘zbek tilshunosligida esa lingvistik birliklarning nutqiy jarayonda turlicha funksiyalarga

ega bo‘lishi, ularning nutqiy qurshovda reallashish jarayoni ayrim tadqiqotchilar ishining o‘rganish muammosi bo‘lgan[11; 12].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

U.Tursunov boshchiligidagi darslik mualliflari yordamchi fe’llar haqida quyidagicha yozadilar: “Yordamchi fe’llarning bir turi deb qaraluvchi to‘liqsiz fe’llar *(edi, ekan, emish,* ba’zan, *erur)* asosan fe’lning analitik zamon shakllarini yasashda *(kelgan edim, kelayotgan ekansan, kelar emish, kelib edim, kelmoqda ekan* kabi) hamda ot kesimning bog‘lama qismi vazifasida qo‘llanadi...Bu vazifada *bo‘l* yordamchi fe’li ham ishlatiladi” [13]. Ushbu darslik mualliflaridan biri Sh.Rahmatullayev oradan deyarli 20 yil o‘tib nashr etilgan darsligida: “Tarixan *er-* fe’li mavjud bo‘lib, keyinchalik bu fe’l leksik ma’no anglatish xususiyatini va shu bilan birga undan turli shakllar yasalishi xususiyatini yo‘qotgan. Bu ikki hodisani nazarda tutib ushbu fe’l *to‘liqsiz fe’l* deyiladigan bo‘lgan. Hozirgi o‘zbek tilida to‘liqsiz fe’l degan fe’l yo‘q, fakat *e-* fe’l asosidan hosil qilingan *edi, ekan, emish* affiksoidlari mavjud”[14,316] deya zamonaviy o‘zbek tilida to‘liqsiz fe’l mavjud emas, degan fikrni beradi.

Sh.Jalolova ingliz va o‘zbek tillaridagi bog‘lama hamda yordamchi fe’llarni o‘rganib, ushbu xulosalarni beradi: “1. Bog‘lama fe’llar asosan ot (I *am a teacher*), sifat (She *is beautiful*), son (It *is 9 o’clock*), olmosh (It *is me*) so‘z turkumlari va holat ma’nosini ifodalaydigan so‘zlar (statives, adlinks) bilan birgalikda ot kesimni hosil qiladi. Bog‘lama fe’llarning tahlili natijalariga ko‘ra quyidagi turlari belgilandi: sof *(to be)*; maxsus (sezgini ifodalaydigan: *look, seem, appear, feel, taste*; sezgini ifodalamaydigan: *become, get, grow, remain, keep, turn, go, run)*. Shuningdek, bog‘lama fe’llar mustaqil ma’no ham ifodalay oladi, bunday bog‘lama fe’llar hozirgi vaqtgacha iste’molda bo‘lib, ular mustaqil fe’llardan hosil bo‘lgan... O‘zbek tilida ayrim tilshunoslar tomonidan bu ikki terminni (bog‘lama va yordamchi fe’llar) bir atamaga birlashtirib, “to‘liqsiz fe’l” deb ham qo‘llaydilar. Shunga muvofiq, o‘zbek tilida to‘liqsiz fe’llarni *edi, emish, ekan* tashkil qiladi. Shuningdek, o‘zbek tilida bir nomustaqil fe’l kontekstga qarab bog‘lama va yordamchi fe’l bo‘lib kelishi mumkinligi ham kuzatildi... 2. Yordamchi fe’llar mustaqil fe’llarga qo‘shilib, ularning kategorial formalarini yasaydi. Bunday formalar analitik formalar hisoblanib, ularda bitta mustaqil va birdan to‘rttagacha (ingliz tilida) yordamchi fe’llar bo‘ladi” [15,15].

M.Ergashev o‘z tadqiqot ishida ingliz tilidagi fe’llarning funksional tipologiyasini ko‘rib chiqib, bunda u asosiy fe’l, bog‘lovchi fe’l, yordamchi fe’l va modal fe’lni ajratadi. Tadqiqot obyekti bo‘lgan bog‘lovchi fe’llarga shunday ta’rif beradi: “Bog‘lovchi fe’l fe’lning funksional varianti bo‘lib, leksik ma’nosini to‘liq yoki qisman yo‘qotib, funksional jihatdan tildagi ot yoki otlashgan til elementlarining nutqda bir-biriga predikativlik munosabati orqali bog‘lanishini ta’minlashga xizmat qiluvchi til birligidir. U fe’lning barcha grammatik, semantik va funksional xossalarini o‘zida jamlaydi” [16,13-14].

Hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanuvchi *edi, ekan, emish* to‘liqsiz fe’llarining polifunksional jihatlarini ko‘rib chiqamiz.

Edi to‘liqsiz fe’li odatda o‘tgan zamon shakllarini yasash vazifasini bajaradi:

Hatto o‘zimizdan chiqqan Uzoqov degan muxbir ham «Amerikasini ham ko‘rdik», degan maqola yozgan edi (O‘.Hoshimov). Bu yerda kesimi fe’l bilan ifodalangan gapda o‘tgan zamonni bildirish uchun ishlatilyapti.

Kelgan odam dadasi edi. Qizining norozi bo‘layotganini eshitdi chog‘i, xotiniga o‘qrayib qarab, Lobar kirib ketgan xonaga ukki ko‘zlari bilan imo qilib, dedi: - Nima deyapti? (A.Qorjovov) Bu gapda esa mazkur to‘liqsiz fe’l ot bilan ifodalangan kesim tarkibida qo‘llanyapti.

Shuningdek, mazkur to‘liqsiz fe’l qo‘shma gaplar tarkibida biror harakat yuzaga kelguncha sodir bo‘lgan boshqa harakat yoki holatning mavjudligini ifodalaydi va qo‘shma gap tarkibidagi tobe gapni bosh gapga bog‘lash vazifasini ham bajaradi:

Oldiniga ular muz va kosmik changdan iborat ulkan shar parchalanib ketdi, degan fikrda edi, chunki Quyoshga yaqinlashganidan keyin u deyarli ko‘rinmay qolgandi (https://darakchi.uz/uz/3423?attempt=1).

Shuningdek, *edi* to‘liqsiz fe’li buyruq-istak maylidagi fe’llar bilan ham qo‘llanadi va bunda ham o‘tgan zamonga oidlik sezilib turadi: *kelmasin edi.*

Funksiyasi jihatidan eng sermahsul bo‘lgan *ekan* to‘liqsiz fe’li biror harakat yoki holatning mavjudligi endi aniq bo‘lganda, ishlatiladi:

Insof bilan aytganda, bifshteksi mazaligina ekan (O‘.Hoshimov).

O‘zi bog‘langan fe’l orqali u bilan anglashilgan mazmun biror hodisaning sababi ekanligini ifodalash uchun qo‘llanadi:

Men millionlab insonlarning taqdiri uchun mas’uliyatni zimmamga olgan ekanman, islohotlar borasida boshqacha yo‘l tutishim, hammasini avvalgidek qoldirishim aslo mumkin emas (https://uza.uz/uz/posts).

Quyidagi gapda esa *ekan* to‘liqsiz fe’li shartlilik ma’nosini bildirish uchun xizmat qilyapti: *Uchinchidan, shu odating bor ekan, nega oldindan aytib qo‘ymading?* (O‘.Hoshimov)

Shuningdek, ushbu to‘liqsiz fe’l davomiylik ma’nosini ham ifodalashi mumkin: *U onasining oriq qo‘llarini uqalar ekan, endi nima qilishni o‘ylar edi* (T.Malik).

Ekan to‘liqsiz fe’lining biror holat yoki harakat boshqa holatga to‘siq bo‘lmasligini bildirish funksiyasini bajarishini ham ko‘ramiz: *bir ekan-ku, ming bo‘lmaydimi* tarzidagi holatlarda buni kuzatish mumkin.

Bundan tashqari, mazkur to‘liqsiz fe’l biror harakatning qanday bajarilishini bildirishi mumkin: *Qalin o‘tlarni yalang oyoqlab bosib borar ekan, u osmonga qaradi* (Z.Adhamzoda).

To‘liqsiz fe’lning *emish* shakli hozirgi o‘zbek tilida kam qo‘llaniladi. Masalan, *qolar emish, kelar emish, borar emish* birikmalarida mazkur fe’l biror xabarni kimdandir bilganlik ma’nosini ifodalaydi.

Seni qara-ya! Uning qo‘li o‘sha kuniyoq tuzalib ketgan, “vrach” emish-a...(O.Yoqubov) Mazkur misolda esa *emish* to‘liqsiz fe’li norozilikni bildirish uchun ishlatilyapti.

Shu o‘rinda ingliz tilidagi yordamchi fe’llar, jumladan, *be* fe’lining sinkretik tabiati haqida to‘xtalib o‘tish ushbu qism mazmuniga mos keladi, deb hisoblaymiz.

“It’s bad for children,” said old Cotter, “because their mind are so impressionable” (J.Joyce)

Yuqoridagi misolda mazkur fe’l ikki o‘rinda (qisqartma shakldagi *is* va *are* shaklida) bog‘lama fe’l vazifasini bajarib kelmoqda.

He was sitting on the black chair. Bu gap tarkibidagi *be* fe’li shakli *was* davomiy zamon shaklini hosil qilish uchun qo‘llangan.

An invitation to dinner was soon afterwards dispatched (J.Austen).

Ushbu gap tarkibidagi *was* fe’li majhul nisbat shaklini yasash uchun qo‘llangan.

Shuningdek, *be* fe’li modal fe’l sifatida ham ishlatilishi mumkin. Bunda mazkur fe’l shakllaridan keyin odatda *to*-lik infinitiv qo‘llanadi va u ikki xil ma’noni ifodalash funksiyalaridan birini bajarishi mumkin:

The bus was to leave at 11.

Ushbu gapda mazkur modal fe’l sodir bo‘lishi kerak bo‘lgan, oldindan belgilangan ish-harakatni bildirish uchun xizmat qilyapti.

I’m to study in Cambridge next year. Bu gapda ushbu fe’l shakli kelasi zamonda bo‘lishi rejalashtirilgan harakatni ifodalash vazifasini bajarmoqda.

Ingliz tilida akademik yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan saytda yordamchi fe’llar quyidagicha tavsiflanadi: yordamchi fe’llar fe’l birikmada asosiy fe’l orqali bildirilgan voqea, holat kabilar bo‘yicha turli xil holatni namoyon qiladi. An’anaviy tilshunoslikda yordamchi fe’llar uchta guruhga bo‘linadi: birlamchi yordamchi fe’llar, modal yordamchi fe’llar va chegaraviy (yarim) yordamchi fe’llar. Bunday bo‘linish mazkur uchta guruhning qisman ma’no va qisman grammatik jihatlariga asoslanadi.

O‘zbek tilidagi modal ma’noni ifodalovchi ko‘makchi fe’llar aslida mustaqil fe’l bo‘lib, ko‘makchi fe’l bo‘lishi mazkur fe’llarning ikkilamchi funksiyasi hisoblanadi.

Ingliz tilida *be* fe’li modal fe’l sifatida ham qo‘llaniladi. Bunda mazkur fe’l shakllaridan keyin odatda *to*- lik infinitiv qo‘llaniladi va u sinkretik tabiatidan kelib chiqib, turli xil ma’no ifodasi uchun xizmat qiladi.

XULOSA

O‘zbek tilidagi to‘liqsiz fe’llar va ingliz tilidagi birlamchi yordamchi fe’llar qo‘llanish xususiyatlariga ko‘ra o‘xshash bo‘lib, ular biror harakat yuzaga kelgunga qadar sodir bo‘lgan boshqa harakat yoki holatning mavjudligini bildirish, grammatik ma’no ifodalash bilan polifunksional xususiyatlarini namoyon etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Гвишиани Н.Б. Полифункциональные слова в языке и речи. – Москва: Высшая школа, 1979.

2. Бабайцева В. Явление переходности в грамматическом строе русского языка. – Москва: Издательский дом “Дрофа”, 2000.
3. Baerman M., Brown D., Corbett G.G.The Syntax-Morphology Interface. A Study of Syncretism. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005.
4. Halliday M., Matthiessen C. An Introduction to Functional Grammar. – London: Hodder, 2004.
5. Krifka M. Case Syncretism. De Gruyter Mouton. – 2009.
6. Павлюковец М.А. Синкретизм на морфологическом и синтаксическом уровнях английского языка как проявление языковой экономии: функциональный аспект. - Дисс.... канд. филол. н. Ростов-на-Дону, 2009.
7. Поликарпов А.Синтаксическая полифункциональность. – Архангельск: Издательство ИПЦ САФУ, 2013.
8. Stump G. Polyfunctionality and inflectional economy// LiLT. 2014. Volume 11, Issue 3.
9. Денисова О.И. Вертикальный синкретизм в языке и речи (фонетический и лексический уровни). Ростов н/Д.: Фонд науки и образования, 2016.
10. Sims A.D. Syncretism (an example of a form-meaning mismatch). - The Ohio State University, 2017.
11. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1975; Тожиев Ё. Ўзбек тилида аффиксал синонимия: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 1992.
12. Ҳожиев А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973.
13. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
14. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Биринчи китоб. – Тошкент: Mumtoz so`z, 2010.
15. Жалолова Ш. Инглиз ва ўзбек тилларида феъл турларининг чоғиштирма тадқиқи: Филол. фанлари бўй.фалс.д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019.
16. Эргашев М. Сиёсий дискурсда қўлланувчи боғловчи феълларнинг функционал-семантик тадқиқи. Филол. фанлари бўй.фалс.д-ри ... дисс. автореф. – Фарғона, 2020.